

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA SAHNALASHTIRISH FAOLIYATINING  
AHAMIYATI**

**Urozimbetova Asrvinoz Rustam qizi**

DTPI Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1 – bosqich talabasi

**Bahronova Sabina Elmurod qizi**

DTPI Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1 – bosqich talabasi

**Turdiyeva Dilorom Toshpo'latovna**

DTPI Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1 – bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Maqolada maktabgacha yoshdagি bolalarning sahnalaşdırış o'yinlari oeqali ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, sahnalaşdırış faoliyatining asosiy maqsad va vazifalari, teatr – sahnalaşdırış faoliyatining shakillari va sahnalaşdırış faoliyatining ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

**Ka'lit so'zlar:** MTT, bola, o'yin, teatr, sahnalaşdırış, qiziqish, san'at.

**KIRISH**

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkiloti uzlusiz ta'lim tizimining birinchi turi ya'ni dastlabki bosqichidir.

Bugungi kunda davlatimiz rahbari tomonidan maktabgacha tizimiga juda katta e'tibor qaratmoqda. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev 2016 – yil 29 – dekabrdagi " 2017 – 2021 -- yil larda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risida''gi PQ – 2707 – sonli qarori qabul qilindi vas hu qaror asosida dastur ishlab chiqildi.

Har bir bola shaxsining rivojlanishi, ijodiy qobiliyatlarini shakillantirishda uni san'atga, adabiyotga qiziqish va xalqimizning boy ma'daniy me'rosiga nisbatan hurmatni tarbiyalash vazifasini amalga oshirishda pedagog yetakchi ro'l o'ynaydi. Sahnalashtirish jarayonida ishtirok etish orqali bolalar atrofdagi dunyo bilan, uning xilma – hilligi bilan tanishadilar va bola o'zining har qanday ixtiolarini yaratadilar.

Bolalar qanchalik kichkina bo'lsa, bizlarning ular bilan ishlashimiz shunchalik osonroq bo'ladi.

Sahnalaşdırış faoliyati qanchalik boy va mazmunli bo'lsa "bolalar dunyoqarashining rivojlanishi shunchalik oson va muvafaqqiyatli bo'ladi".

Barcha bolalar sahnalshtirilgan o'yinlarni, qo'g'irchoq, soya teartlarini juda yaxshi ko'radilar. Bolalar yoshligidanoq hamma narsaga juda bir qiziqish bilan qaraydi. Ular o'zlarini ham san'atkor bo'lishini yaxshi ko'radilar.

Avvalo, teatr san'ati bolalarga yaqin va tushunarli bo'ladi. CHunki teatr – o'yinga asoslangan bo'ladi.

Bola tasviriy faoliyat mashg'ulotlari orqali diqqatni bir joyga taqsimlay olishni va ishni oxirigacha bajarishni, o'tira olishni o'rganadi. Tabiatni, atrof – muhitni kuzatish, uni asrab – avaylashni ardoqlashni unga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lishni o'ganadi. Sahnalashtirish faoliyati bolaning hissiyotlarni rivojlantirishning tugalmas manbasi hisoblanadi. Va bolaning ma'naviy boyligini oshiradi.

Teatr san'ati bolalar uchun tushunarli va o'zi ijo eta oladigan san'atturi hisoblanadi. CHunki uning asosida o'yin yotadi. Teatr tomoshabinga, badiiy so'z, xatti – harakat, rang, musiqa bilan ta'sir ko'rsatadi.

Sahnalashtirish faoliyatining asosiy maqsadi shundan iboratki sahnalashtirish faoliyati vositasida bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishdir.

Sahnalashtirish faoliyatining vazifasi:

1. Sahnalashtirish faoliyatida bolalar ijodiy faolligini oshirish uchun shart – sharoitlar yaratish. Masalan: qibiliyatini rivojlantirish, ijodiy ijrolarni rag'batlantirish, dadil o'zini tutish, erkin harakatlar va boshqalar.

2. Bolalar teatr madaniyatiga jalb etish. Masalan: teatr janrlari bilan, qo'g'irchoq teatri bilan asosan, teatr tushunchasi bilan.

3. Pedagog teatrni boshqa faoliyat turlari bilan hamkorligini ta'minlanishi. Misol uchun jismoniy harakatlar vaqtida, musiqa mashg'ulotlarida, ekskursiyalarda.

4. Kattalar va bolalar bilan hamkorlikda ishlash uchun shart – sharoitlar yaratish.

5. Kichik yoshdagi bolalarga hurmat va o'zini – o'zi tushunishi uchun yaxshi mikroklimot yaratish.

Haqiqiy teatrga 2 – 3 yoshli bolalarni olib borish hali erta. Demak, bolalarni teatrga juda kichkinaligidan olib borish yaramaydi.

Yangi o'yinchoqlar masalan: kuchukcha, ayiqcha, qo'g'irchoq kabi o'yinchoqlar bolalarga zavq, qiziqish, hayratlanish xislatlarini uyg'otadi.

Har bir bola avvalo, o'yinchoqlar yordamida oddiy harakatlardan asta – sekin kichkina qiyin bo'Imagan syujetlarni o'ynashi mumkin.

Tashkil etilgan teatrlashtirilgan o'yinlar shakli kichik guruhlarga bo'lingan holda o'tkazilgani ma'quldir. Ana shundagina har bir bolaga alohida yondashish ya'ni tarbiyachi har bir bola bilan ishlashoi ta'minlanadi.

Sahnalashtirish faoliyatining quyidagi faoliyatlarini o'z ichiga oladi. Bular ko'ngil ochar o'yinlar, bayramlar, mashg'ulotlar, to'garaklar va boshqalar.

Sahnalashtirish faoliyatining mashg'ulot shaklini oladigan bo'lsak, mashg'ulotlar bir vaqtning o'zida bolaning bilim olishini, tarbiyaviy va rivojlanish vazifalarini bajaradi. Unda faqat tomoshaga tayyorgarlik ko'rish bo'imasligi kerak. Ularning mazmuni, shakli va metodi uch maqsadga erishish uchun qaratilgan .

- nutq va teatr ijrochilik faoliyati ko'nikmalarining rivojlanishiga;
- ijrochilik muhitini yaratishga;
- bolalarning ijtimoiy - emotsional rivojlanishiga.

Sahnalashtirish o'yinlari, bu bolalarning erkin va mustaqil o'yin turi bo'lib, unda badiiy asar va hikoyalar bolalar tomonidan ro'llarga bo'lib ijro etiladi. Bu kabi o'yinlar bolalarga iroda, intizom va xatti – harakatlarini boshqara olish, bolalarning harakatlari bilan hisoblashish kabi ijobjiy ma'naviy xislatlarini shakillantiradi.

### **XULOSA**

Bolalarning sahnalashtirish faoliyati, albatta o'z – o'zidan kelib chiqmaydi. Bu masalada shu jarayonni yaxshi boshqara oladigan tarbiyachining ro'li juda katta ahamiyatgaa ega. Shuni ta'kidlash lozimki, bir vaqtning o'zida bilim berish, tarbiyalash va rivojlsntirish vazifalarini bir muncha sahnalashtirish faoliyati sahna chiqishlarini tayyorlashga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi.

Teatr bola uchun katta ahamiyatga ega. Bolalar u bilan uchrashuvni sabrsizlik bilan kutadi. Teatr hamma narsaga qodir, u mo'jiza yaratadi, quvontiradi, o'rgatadi, maktabgacha yoshdagi bolalarning xulqini faollashtirib, notiqlik qobiliyatini rivojlantradi. Shu bilan bir qatorda bolalarning o'ziga ishonchini oshiradi. SHunday qilib turli xildagi teatralar bolalar tasavvurining kengayishida juda katta ahamiyatga ega ekan. Bolalarni yoshligidanoq tuli xil teratrlarga olib borish maqsadga muvofiq.

### **FODALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining " 2017 – 2021 – yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora = tadbirlari to'g'risida"gi PQ – 2707 – sonli qarori 2016 -yil 29 – dekabr.
2. Z.S.Teshaboyeva. Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish. T- " Innovatsion rivojlanish nashriyoti" – 2020 – yil. ( O'quv qo'llanma)ю
3. Xasanboyeva O.U va boshq. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. T: Ilm ziyo. 2006.

4. Yusupova.P. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. T: O'qituvchi. 1993 -yil.
5. Lex.uz.